

## UZUM KASALLIKLARI VA UNGA QARSHI KURASHISH CHORALARI

*Valiyeva Durdon Latifjon qizi*

*Abdullayeva Niluzarxon Baxtiyorjon qizi*

*Abdulxafizova Durdon Ma'ydinjon qizi*

*Abduqaxxorov Umidjon Dilshod o'g'li*

**Annotatsiya.** . *Ma'lumki,yurtimizda kundan-kunga aholi soni ortib bormoqda.Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni yanada oshiradi.Iste'molchilar huquqlarini hisobga olgan holda mahsulotlarni tabiiy va sifatli yetkazish dehqon xo'jaliklari zimmasiga tushadi. Lekin tangani ikkinchi tarafì bo'lganidek bu ishlarni amalga oshirishnini ham bir muncha mashaqqati bor. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi ekinlariga turli xildagi zararkunandalar xavf solmoqda bu esa shu ekinni sifati va hosildorligiga salbiy ta'sir qiladi. Biz shu muammoga qarshi qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Ushbu tezisda uzumda uchraydigan un shudring kasalligi va unga qarshi kurashish choralar to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishasiz*

**Kalit so'zlar:** *Un shudring, soxta un shudring, Uncinula nicator Burril,Fungitsid, biologik kurash, kimyoviy kurash.*

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida” 2019 -yil 17-apreldagi PF-5708 son Farmoni hamda O'zbekiston Respubliksi prezidentining “Ozbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatini takomillashtish to'g'risida” 2019 -yil 17-apreldagi PQ-4292-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi::.

Mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish, uzum yetishtirish, uni qayta ishslash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha klaster tizimini yo'lga qo'yish, alkogol bozorini tartibga solishning samarali mexanizmlarini

keng joriy etgan holda respublikani sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, sohaning eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsion jozibadorligini oshirish, shuningdek, vinochilik turizmini (enoturizm) rivojlantirish maqsadida.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston sharoitida tok kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, ular uzum sifatini buzadi, novdalarni kuchli zararlantiradi va ob-havo sharoitiga qarab hosildorlikni 25-70% gacha kamaytiradi.

Tok o'simligiga oidium yoki un shudring, antraknoz, tserkosporos, kulrang chirish, qora chirish kasalliklari keng tarqalgan. Keyingi yillarda mildiyu kasalligi Respublikamiz tokzorlariga jiddiy zarar yetkazishi kuzatiilmoxda.

**Unshudring yoki oidiyum.** Kasalligi qo'zg'atuvchisi *Uncinula nicator* *Burril* zamburug'i bo'lib *Erysiphales* tartibiga mansubdir. Kasalik asosan Markazi Osiyoda keng tarqalgan bo'lib, tokning kurtak, barg, poya, va mevasini kasalantirib katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Kasallangan o'simlik qismlari oq kulrang, qo'ng'ir rang g'ubor bilan qoplanib mitseliy va konidiyalar bilan o'ralgan bo'ladi.

Kasalikni asosiy belgisi kurtak va yosh novdalarda paydo bo'lib, uning usti mitseliy va konidiyalar bilan qoplanadi. Novdalarda mitseliylarni paydo bo'lishi erta bahordan gullashgacha yoki gulashdan keyin ham bo'ladi. Kasalikni asosiy manbalari o'simlik qoldiqlaridagi zamburug'ni mitseliylar hisoblanadi. Kasalikni erta paydo bo'lishi natijasida meva rivojlanmaydi, quriydi va tushib ketmaydi. Kasalikni kech paydo bo'lishi natijasida uzumbosh mevasini yorilib ketishiga olib keladi. Novdalarda oqish ipsimon g'ubor hosil bo'ladi. Bargning har ikki tomonida oqish g'ubor hosil bo'ladi. Keyinchalik bu g'uborlar qo'ng'ir ranga aylanadi.

Kasalikga oq muskat, toifi, husayini va kattaqo'rg'on navlari beriluvchan boladi. Kasalik qo'zg'atuvchisini rivojlanishi uchun optimal namlik 70% ni tashkil etadi. Zanburug'ni mitseliylari 11-12 C o'sa boshlaydi, 18-25 C da yaxshi rivojlanadi. Infeksiya manbai kasallangan novda va kurtak po'stidagi mitseliy hisoblanadi.

**Kurash choralari.** Ekish uchun tayyorlanadigan novdalarni sog‘lom o‘simliklardan olish, xomtokni sifatli o‘tkazish, kurtak chiqarish vaqtidan boshlab fungitsidlardan foydalanishni 3-4 marta o‘tkazish kerak. Bunda oltingugurt kukunini 20-25 kg dan gektariga changlatishi kerak. Bayletonni 25% navlanuvchi kukunidan 0,15-0,3 kg/ga, Vektrani 10% li suspenziyasidan 0,3 l/ga, 25% li Impaktni suspenziyasidan 0,1-0,15 l/ga, Karatan-LS ni emulsion konsentratidan 1,0-1,5 l/ga, Oltingugurt 80% li namlanuvchi kukunidan 9-12 kg/ga, Saprolni 20% li emulsion konsentratidan 1,0-1,5 l/ga, Bamperni emulsion konsetratidan 0,25 l/ga, 10% Topazni emulsion konsetratidan 0,2-0,25 l/ga, Topsin—M 70% namlanuvchi kukunudan 1, kg/ga Folik BT ni 22,5 % gidan 0,5 l/ga purkaladi. QARShI KURASH ChORALARI." (2023): 155-157.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1

qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik

A.Sheraliev. Umumiyl va qishloq xo‘jaligi fitopatalogiysi. ‘Talqin’ nashiryoti.Toshkent sh.2004 yil. 218 bet.

4. E.A.Xolmurodov, M.A.Zuparov, R.K.Sattarova, N.T.Xakimova. Qishloq xo‘jaligi fitopatalogiysi. Toshkent 185 b.2014. 451 b.

5

6

. Odiljon o‘g‘li, Tolibjonov Oxunjon, and Abrorbek Abdullaev Musajon o‘g‘li.

bo‘limi, 503 b.